

QASHQADARYO VILOYATI QISHLOQ XO'JALIGIDA LALIMIKOR YERLARDAN FOYDALANISH HOLATI

Eshboyev B. T. - *Qarshi davlat universiteti dotsenti*

Davronova F. O' - *Qarshi davlat universiteti talabasi. O'zbekiston*

Annotatsiya. Arid iqlimli hududlarning qishloq xo'jaligida lalimikor yerlarning ahamiyati muhim o'rin tutadi. Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyati lalimikor dehqonchilik qilinadigan hududlarning geografik tavsifi bayon etilgan.

Kalit so'zlar. *Lalmi yerlar, lalmikor dehqonchilik, bahorikor ekinlar.*

KASHKADARYA REGION STATUS OF USE OF RAINFED LANDS IN AGRICULTURE

Eshboyev B. T. - *Associate Professor of Karshi State University*

Davronova F. O' - *Student of Karshi State University. Uzbekistan*

Abstrakt: The importance of rainfed lands in agriculture in arid climate regions is significant. This article describes the geographical characteristics of the areas of the Kashkadarya region where rainfed lands farming is practiced.

Key words: *Rainfed lands, rainfed agriculture, spring crops.*

Lalmikor yerlar — yillik o'rtacha yog'ingarchilik 200 mm dan yuqori bo'lgan, sug'orilmay dehqonchilik qilinadigan adir zonalaridagi yerlardir. Bu yerlarda tabiiy namlikni to'plash, uni saqlash, tuproqni o'g'itlash va begona o'tlarga qarshi kurash kabi tadbirlar qo'llanadi. Lalmikor dehqonchilik, sug'orish imkoniyati yo'q yerlardan foydalanishga imkon bergani uchun iqtisodiy ahamiyatga ega va sug'oriladigan ekin maydonlarini kengaytirish uchun katta zaxira hisoblanadi. Lalmikor yerlar, bahorikor yerlar – zonasidagi sug'orilmay dehqonchilik qilinadigan yerlardir. Lalmikor dehqonchilik sug'orish uchun noqulay bo'lgan yerlardan foydalanish imkonini bergani uchun ham katta iqtisodiy ahamiyatga ega. Qashqadaryo viloyatining mavjud yer resurslaridan lalmikor dehqonchilikda ham foydalaniladi. Lalmikor dehqonchilik - qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlaridan farq qilgan holda, iqlim sharoitlari va ob-havoning bahorgi holati bilan bevosita bog'liq. Bu hududlarda qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligi ham ob – havo sharoitlariga bog'liq holda o'zgarib turadi,

bahor quruq kelgan yillarda esa lalmi yerlardan mahsulot olish miqdori kam yoki umuman bo'lmashligi ham mumkin.

A.V. Genusov va boshqalarning (1960) ma'lumotlariga ko'ra O'zbekistonda lalmikor dehqonchilikda foydalanilishi mumkin bo'lgan yer resurslarining maydoni 3114,4 ming ga ni tashkil etadi. Bu yerlarning 28,5% i ta'minlangan, 47,1% i chala ta'minlangan va 24,4% i ta'minlanmagan zonalarda joylashgan [1]. L.I.Kurakova (1976) quyidagi agrolandshaft turlarini ajratadi: lalmikor, sug'orma, yaylov va o'rmon xo'jaligi landshaftlari. Har bir landshaft turida sodir bo'ladigan o'zgarishlar aniq dalillar bilan ochib berilgan (gidrotermik, fizik-mexanik, kimyoviy va boshqa sharoitlar) [2].

Qashqadaryo viloyatida lalmi yerlarning salmog'i ancha yuqori (258,4 ming ga) [3]. Lalmikor dehqonchilik sharoitlariga ko'ra Qashqadaryo viloyatining hududi alohida Qashqadaryo okrugiga ajratiladi. Qashqadaryo viloyatida ham O'zbekistonning boshqa viloyatlaridagi kabi yer resurslaridan lalmikor dehqonchilikda foydalanish imkoniyatlari juda katta. Lalmikor yerlarda qishloq xo'jalik ekinlarini faqat tuproq qatlamlaridagi yog'inlar hisobiga yig'ilgan namlik evaziga yetishtirilishini hisobga olib, yillik yog'in miqdori o'rtacha 200 mm dan oshadigan yerlardagina lalmikor ekinlar joylashtiriladi. Lalmikor yerlar tuproq mintaqalarining joylashishiga mos ravishda namlik bilan ta'minlangan, kam ta'minlangan va ta'minlanmagan yerlarga bo'linadi. Jigar rang va qoramtir bo'z tuproq baland mintaqada joylashgan bo'lib, namlik bilan ta'minlangan, tipik bo'z tuproq o'rta-tog' oldi zonalarida tarqalgan va namlik bilan kam ta'minlangan va och tusli bo'z tuproqlar quyi rayonlarda namlik bilan ta'minlanmagan lalmikor yerlar hisoblanadi M.Fayzullayevning keltirishicha (2019), lalmikor yerlarning kattaligi bo'yicha Chiroqchi tumani keskin ajralib turadi, uning hissasiga ushbu toifadagi rayon yerlarining 44,0 foizi, viloyat lalmi yerlarining esa 2/5 qismi to'g'ri keladi [3].

Mamlakatimizda 734 ming ga lalmi ekin maydoniga ega. Bu maydonning 99,8 ming ga si nam bialn yaxshi ta'minlangan, 553,7 ming ga chala ta'minlangan, 89,5 ming ga nam yetishmaydigan maydonlardir.

Lalmikor yerlar vertikal zonallik qonuniga asosan o'zgarib boradi, hamda tuproq va iqlim sharoitlariga ko'ra, namlanish sharoitiga qarab quyidagi mintaqalarga ajratiladi:

Viloyatning lalmikor yerlarida asosan g'alla ekinlari yetishtiriladi. Keyingi yillarda moyli qishloq xo'jalik ekinlari ham ancha katta maydonlarda yetishtirila boshlandi (kunjut). Chiroqchi, Qamashi va boshqa tumanlarning lalmikor yerlaridan yil davomida ikki marta hosil olish imkoniyatlari mavjudligini tajribalar yaqqol ko'rsatmoqda. G'alla ekinlari yig'ishtirilib yerlarga yaxshi ishlov berilgach poliz ekinlarini (tarvuz) ekish va yuqori hosil olish mumkin. Shuningdek, lalmikor yerlarda chorvachilik ozuqa bazasini yaxshilash uchun katta tabiiy imkoniyatlar mavjud. Lalmikor dehqonchilikning ta'minlangan zonasida ozuqa ekinlaridan ancha yuqori hosil olish mumkin. Masalan, yo'ng'ichqaning hosildorligi lalmi yerlarda sug'oriladigan yerlardagiga nisbatan 2 – 2,5 marta kamroq bo'lsada (40 – 50 ts/ga) iqtisodiy jihatdan ancha arzonroqdir.

Tog'oldi mintaqasida yillik yog'in miqdori 350-400 mm ni tashkil etadi. Bu mintaqada 50-60% maydon eroziyaga uchragan. Tog'oldi mintaqasi namlik bilan ta'minlangan bo'lib, Kitob tumaning janubi-g'arbiy qismi, Chiroqchini tumanining markaziy va sharqiy qismlari, Dehqonobod tumanini tog'oldi qismi, Qamashini sharqiy va janubiy qismlari kiradi [4].

Iqlim sharoitlari tuproqlarning vujudga kelishi va hududiy tabaqalashuvdagi muhim omillardan hisoblanib, lalmikor yerlarda tuproqlarning genetik tiplarining vujudga kelishida va hududiy tarqalishida iqlim unsurlaridan radiatsiya, issiqlik va namlanish sharoitlari ayniqsa katta ahamiyatga ega. Viloyatning janubiy geografik o'rni tufayli bu hududda yil davomida Quyoshdan katta miqdorda radiatsiya keladi. Lalmikor hududlarda iliq davr 26 fevraldan boshlanib, 16 dekabrgacha (277-304 kun) davom etadi. o'rtacha baland tog'larda 4000⁰ dan 2800⁰ gacha pasayib boradi. Bu ko'rsatkichlarga ko'ra, viloyatning lalmikor yerlari issiq va juda issiq zonalarga mansub bo'lib, bu hududlarda yillik yog'in miqdori 300 mm dan 650 mm gacha oshib boradi [5].

Viloyatning lalmikor yerlarida asosan g`alla ekinlari yetishtiriladi. Keyingi yillarda moyli qishloq xo`jalik ekinlari ham ancha katta maydonlarda yetishtirila boshlandi (kunjut). Chiroqchi, Qamashi va boshqa tumanlarning lalmikor yerlaridan yil davomida ikki marta hosil olish imkoniyatlari mavjudligini tajribalar yaqqol ko`rsatmoqda. G`alla ekinlari yig`ishtirilib yerlarga yaxshi ishlov berilgach poliz ekinlarini (tarvuz) ekish va yuqori hosil olish mumkin. Shuningdek, lalmikor yerlarda chorvachilik ozuqa bazasini yaxshilash uchun katta tabiiy imkoniyatlar mavjud. Lalmikor dehqonchilikning ta`minlangan zonasida ozuqa ekinlaridan ancha yuqori hosil olish mumkin. Masalan, yo`ng`ichqaning hosildorligi lalmi yerlarda sug`oriladigan yerlardagiga nisbatan 2 – 2,5 marta kamroq bo`lsada (40 – 50 ts/ga) iqtisodiy jihatdan ancha arzonroqdir.

Lalmikor dehqonchilik yerlarining tog` oldi va tog`li rayonlar bilan bog`liqligi yer resurslaridan foydalanishni ancha qiyinlashtiradi (yonbag`irlar nishabligi, qishloq xo`jalik texnika vositalarining harakatlanishining qiynligi va b.sh.). Shuningdek, lalmikor dehqonchilik yerlaridagi barcha tuproq tiplarining eroziya jarayonlariga moyilligi yer resurslarini asrab – avaylash va eroziyaga qarshi tadbirlarni amalga oshirishda haydaladigan yerlar mezo – va mikrorelyefining nishabligiga ayniqsa katta e`tibor berish lozim. Tog` yonbaglarida yerlarni haydash eroziyaga qarshi tadbirlarni hisobga olgan holda bajarilishi kerak. Eroziya havfini baholay bilmaslik noxush oqibatlarga olib keladi. Tog`li yerlarda daraxt va butalarni kesish, o`t qoplamini payxon qilish yerlarni katta maydonlarda yuvilishiga olib keladi. Tuproqdan azot, fosfor va kaliyning yuvilishi natijasida tuproq unumdorligi 50 – 60% gacha kamayishi mumkin. Lalmi yerlarda tuproq unumdorligini tiklash va oshirish uchun beda va kuzgi bug`doyni almashlab ekish muhim.

Lalmi yerlarda eroziya jarayonlarini oldini olish yoki susaytirishda ihotazorlarning ahamiyati juda katta. Ixotazorlar bug`lanishning kamayishi tufayli yuzaning yaxshi namlanishiga, qish paytida qorlarni saqlanib turshiga imkoniyat yaratadi. Yozda esa ihotazorli uchastkalar yomg`irlarni tuproqqa singishini yengillashtiradi. Lalmi yerlarning unumdorligini oshirishda yonbag`irlarni

terrasalash, qishloq xo'jalik ekinlarini tanlash eroziyaga qarshi muhim vositalardir. Tajribalarga ko'ra tamaki, makkajo'xori, poliz-sabzavot, efir moyli, dorivor ekinlar eroziya jarayonlarini susaytirmaydi va aksincha, birmuncha tezlashtiradi. G'alla va boshqali ekinlar esa tuproq eroziyasini ancha susaytiradi, ko'p yillik o'tlar esa eroziya jarayonlariga deyarli barham beradi.

Xulosa. Aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish hozirgi kunda foydalanib kelinayotgan lalmi yerlarni hozirgi zamon talablari asosida doimo rivojlantirish, olib borilayotgan islohotlar negizida yer resurslari va ularning holati, ayniqsa tuproqlarning unumdorlik darajasi bilan bevosita bog'liq. Shu sababli qishloq xo'jaligida amalda foydalanib kelinayotgan lalmi tuproq qoplamlaridan foydalanish samaradorligini va unumdorlik darajasini oshirish, saqlash, qayta tiklash hamda muhofaza qilish eng muhim ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Tuproqda tabiiy namlikni saqlash va uni to'plash, o'g'itlash, begona o'tlarga qarshi kurashish, tuproq eroziyasini oldini olish kabi tadbirlar qo'llanilsa lalmi yerlardan foydalanish samarasi oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Genusov A.Z., Gorbunov B.V., Kimberg N.V. Pochvenno-klimaticheskoye rayonirovaniya Uzbekistana v selskoxozyaystvennix selyax. –Tashkent, 1960. – S.31-79.
2. Kurakova L.I. Antropogenniye landshafti. -M.: MGU,1976. -212 s.
3. Fayzullayev M. A. Janubiy O'zbekiston qishloq xo'jaligi geografiyasi//Monografiya. Qarshi-2019. B. 246.
4. Usmanova R. Xushmurodov F. Qashqadaryo viloyati qishloq xo'jaligini optimallashtirishning ekologik-geografik jihatlari // O'zbekiston Zamini. Ilmiy – amaliy va innovatsion jurnal 2021 yil 2 – son 33-36 b.
5. Xasanov I.A. Otsenka prirodnix territorialnix kompleksov Karshinskoy stepi dlya orositelnoy melioratsii. -T.: Fan, 1981 . -S. 112.
6. Safarov I. B. Iqlim o'zgarishini qishloq xo'jaligiga ta'siri //Экономика и социум. – 2025. – №. 2-2 (129). – С. 158-161.